



HARVARD
DataVERSE

Volume 2 Issue 6
December 2024

ISSN: 2992-8877



Innovation Science and Research

International scientific journal



zenodo



IWORLD
JOURNALS

www.sciencejournal.uz

**International Scientific Journal
INNOVATION
SCIENCE AND RESEARCH
Volume 2 Issue 6
December 2024**

SCIENCEJOURNAL.UZ

**International Scientific Journal INNOVATION SCIENCE AND
RESEARCH.** volume 2 issue 6 – 53p.

The journal publishes the results of research conducted by professors and teachers and independent researchers of the Republic of Uzbekistan and international higher education institutions in the form of scientific articles.

© Innovation Science and Research

© Authors



Editorial	
Editor in chief Juraev Ziyovuddin Mukhiddinovich	Bosh muharrir Jurayev Ziyovuddin Muhibdinovich
Preparing for publishing Abdurakhimova Dilbarxon Abdurakhmonovna	Nashrga tayyorlovchi Abdurakhimova Dilbarxon Abdurakhmonovna
MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD	
<p>Juraev Ziyovuddin Mukhiddinovich <i>Doctoral student (DSc) of the department "Study of Islamic Studies and Islamic Civilization ICESCO" of the International Islamic Academy of Uzbekistan, Faculty of Islamic Studies and International Relations</i></p> <p>Ismoilova Muhayyo Qozoqboyevna <i>Tashkent State University of Uzbek language and Literature named after Alisher Navoi, candidate of philological Sciences</i></p> <p>Artikova Nargiza Shuxratovna <i>Teacher of the Department of theory of Primary Education at Chirchik State Pedagogical University</i></p> <p>Koziev Umidjon Yandashalievich <i>Head of the Department of Uzbek linguistics, PhD, Associate Professor member of the editorial board of the scientific journal "Innovation Science and Research"</i></p> <p>Dilfuza Jalolova <i>Candidate of Medical Sciences, Associate Professor of Samarkand State Medical University.</i></p> <p>Umarova Maxliyo Yunusovna <i>Uzbekistan State University of world languages, candidate of philosophical Sciences, Associate Professor</i></p> <p>Arslanov Sharafutdin Sultanovich <i>doctor of chemical sciences, professor</i></p> <p>Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna <i>Doctor of philosophy in Pedagogical Sciences</i></p> <p>Oripov Orolboy Ahmedovich <i>Navoi State Pedagogical Institute, PhD</i></p> <p>Fazliyeva Zebo Kamarbekovna <i>Uzbekistan State Academy of choreography, associate professor</i></p> <p>Artikov Askar Akbarovich <i>Doctor of philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor of the Department "theory and methodology of football" of the Uzbek State University of physical education and sports</i></p>	

Darvishov Ibroxim

Associate professor of the Department of Uzbek linguistics member of the editorial board of the scientific journal "Innovation Science and Research"

Sevara Nazarova

Philosophy Doctor on Agricultural sciences, Associate Professor of the Department of Soil Science of Bukhara State University.

**MAKTAB TA`LIM TIZMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISHNING YUTUQLARI**

Scientific supervisor :Saliyeva .Ziroat Zokirovna

Murodqobilova Munisa G`ayratovna

Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz tili fakulteti Xorijiy til va adabiyoti 2-kurs, 2306-guruhan

murodqobilovamunisa@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14391029>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda barcha sohalar kabi ta`lim sohasida ham kompyuter texnologiyalari keng kirib keldi va bu ta`lim -tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishda va har tomonlama intellektual salohiyatini oshirishda muhim o`ringa ega.Bugungi kunda hayotni axborot texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin.

Kalit So`zlar: Axborot texnologiyalari, maktab ta`lim tizmi, ta`lim sifati innovatsion texnologiyalar, ma`lumotlar o`qituvchi o`quvchilar axborot kommunikatsiya,milliy dastur dars jarayoni.

KIRISH.

Davlat va jamiyatning taraqqiyoti, kelajagining qanday bo`lishi avvalo maktabdagagi sifatli ta`limiga bog`liq.Yoshlarning kelgusida erishiladigan muvaffaqiyatlarning asosini ulardagi qiziqish va harakatdan oldin ilm tashkil etadi.Maktablar jamiyatga bo`lg`usi professorlar, olimlarni tayyorlashda eng muhim o`ringa ega. Bundan tashqari insonning dunyoqarashini shakllantirishda hayotga moslashishi,jamiyatga kerakli shaxs bo`lib yetishishida maktabning o`rni beqiyos.

XXI asr axborot texnologiyalar davri bo`lganligi uchun biz hozirda hayotni texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin.Texnologiyalar har bir sohaga kirib borgan.Shu jumladan ta`lim sohasining ham bir qismi bo`lib bormoqda.Maktab ta`lim tizmida axborot texnologiyalardan foydalanish hozirgi davrning muhim talablaridan biri sanaladi.Negaki, o`qituvchilar dars jarayonida eng so`ngi texnologiyalardan foydalanib dars o`tsalar o`quvchilarning darsga bo`lgan qiziqishi yanada ortadi.O`quvchilarda ham ko`rish hameshitish orqali olingan bilimlari ularning xotirasida mustahkam saqlanadi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2023-yil 26-maydagagi PF 79-sonli Farmoni tahririda Maktab ta`limini rivojlantirish bo`yicha Milliy dasturni tasdiqlash to`grisidagi qarorida 1.2022-2026-yillarda maktab ta`limini rivojlantirish bo`yicha milliy dastur ,maktab ta`limiga ilg`or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy dasturlar hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish 1-bandida ,umumiy o`rta ta`limda barcha ma`lumot almashinuvni jarayonlarini maktabga va maktab tizmida boshqarishning yagona dasturiy majmuasi orqali oshirilishini hamda ushbu sohada electron davlat xizmatlarini ko`lamini kengayti

zamonaviy modellar bo`yicha maktablarni qurish mukammal ta`mirlash va jihozlash haqida 2-bandida keltirib o`tilgan.[1,1]

Bugungi kunda respublikamizda maktab ta`lim tizimini komputer, multimediali elektron qo`llanmalar, Internet, elektron ma'lumotlar bazasi va shu kabi yangi axborot texnologiyalari asosida tashkil etish hamda mashg`ulot va boshqarish jarayonida ulardan keng foydalanishga oid bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Maktab ta`lim tizimida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari asosida tashkil etiladigan mashg`ulotlar quyidagi talablarga mos kelishi lozim:

- dars jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalari yordamida barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash;
- axborot texnologiyalari asosida o`quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olgan holda ular tomonidan bilimlarning puxta o`zlashtirilishi uchun kerakli imkoniyatlarni yaratish;
- axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari o`quvchini har tomonlama rivojlanishini motivatsiyalash va faollashtirish;
- axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari asosida ta`lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlari mantiqiyligi va emotSIONalligini oshirish.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali umumiyo o`rta ta`lim mакtablarida ta`lim tizimining samaradorligi quyidagi ikki asosiy omil bilan aniqlanadi:

Tatbiq etilayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining sifati;

Axborot texnoloarining tarkibiy qismi hisoblangan zamonaviy ma'lumotlar.[2,98]

Ta`lim muassasalarida komputerli o`yin dasturlaridan foydalanish o`quvchilarda bir qancha pedagogik-psixologik funksiyalarni amalga oshiradi va shakllantiradi: mustaqil harakat qilish imkonini beradi; obrazli tasavvurlash va fikrlash rivojlanadi; ranglarni ajrata olish imkoniyatini yaratadi; bilim olishga bo`lgan qiziqishni uyg`otadi; o`z qobiliyati va iqtidorini namoyish qilish imkonini beradi; muloqot qilish ko`nikmalarini shakllantiradi; insonlar bilan o`zaro munosabatda bo`lishni o`rgatadi; o`z-o`zini nazorat qilishni shakllantiradi; hamkorlik qilish usullarini ishlab chiqish imkonini beradi; charchoq va quvvatsizlikni bartaraf etadi; nutq madaniyati va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi; harakatchanlik qobiliyati oshadi [3,98]

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o`qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o`zgartirishlar kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Interfaol usullar ta`lim jarayonida qatnashayotgan har bir o`quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o`quvchi uchun qiziqarli mashg`ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo`llanilganda o`quvchilar o`qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishslash ko`nikma va malakalariga ega bo`ladilar. O`quvchilar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba-sinovlar o`tkazish asosida o`zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta`lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlarga bo`lingan holda ishlashadi. O`quv topshiriqlari alohida bir o`quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a`zolariga beriladi. Mikroguruhlarning har bir a`zosi topshiriqni bajarishda o`z hissasini qo`shishga

harakat qiladi. Bu holat o'quvchilarda jamoa tuyg'usini shakllantiradi va ularning tashabbuskorligini orttiradi.[4,1151]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda , axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish asosida boshlang'ich sinf ta'lim tizimi samaradorligini oshirish uchun elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish, takomillashtirish va ta'lim jarayoniga joriy etish maqsadida komputerli nashrlar, virtual laboratoriya, ijodiy ishlanmalar, virtual sayohatlar va multimediali dasturlar yaratilmoqdaki, ular multimediali va internet o'qitish texnologiyalaridan foydalanish imkonini beradi. Ta'limda zamонавиј axborot hamda pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchi eshitish, ko'rish, ko'rganlari asosida mustaqil fikrlash qiziquvchanlik, odob-ahloq,ijodkorlik, muloqot va estetik qobiliyatlarni rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.06.2024-y., 07/24/231/0445-son).

<http://lex.uz//docs/-5239538>

2.https://www.researchgate.net/publication/370538206_Umumiy_o'rta_ta'lim_maktablarida_axborot_teknologiyalaridan_foydalanishning_samaradorligi

3.Abdiyev Sh. Ta'lim sifat samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining o'rni. Uslubiy ko'rsatma. - VXTXQTMOI, Samarqand, 2015 -yil.

4. G'ulomov S. Axborot tizimlari va texnologiyalari -T.: "Shark", 2000 -y

**HOZIRGI KUNDA YOSHLARNING INGLIZ TILI O'RGANISHIDAGI
MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMI**

Scientific supervisor: Saliyeva Ziroat Zokirovna

Rahmonova Anora Asqarovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

Ingliz tili fakulteti

Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi

2-kurs, 2306-guruh

raxmonova0808@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14391993>

Annotatsiya. Ingliz tilini o'rganish yoshlar o'rtasida juda ham ommalashib bormoqda. Bu esa ularning til o'rganish qiziqishlarini va ishtiyoqlarini yanada oshirmoqda. Bu yoshlarning o'rganish qobiliyatiga va yurtimizga tashrif buyurgan turistlar bilan muloqot qilishga yordam beradi. Lekin, ular o'rganish jarayonida duch keladigan ba'zi xatolar va muammolar ularning fikrlari o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur maqolada ingliz tilini o'rganayotgan yosh o'quvchilar duch keladigan xatolar, muammolar va yechimlar tahlilini o'tkazamiz.

Kalit so'zlar: til o'rganish, muloqot qilish, xatolar, muammolar, yechimlar.

KIRISH. Bugungi kunda yoshlar o'rtasida xorijiy tillarga bo'lgan qiziqishlar va ularni puxta egallash kundan kunga rivojlanib bormoqda. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, boshqa tillar qatorida ingliz tiliga bo'lgan talab ham juda yoqori.

Ammo o'rganish jarayonida yo'l qo'yadigan ba'zi xatolar tufayli o'quvchilarning o'rganish ishtiyoqini pasayishiga va ularning qiziqishi ham tezda yo'qolib qolishiga sabab bo'lyapti. Taxminan 3-4 yildan beri maktabni bitirgan o'quvchilardan universitet yoki institutga kirish uchun B2 va C1 darajadagi IELTS, CEFR va shunga o'xshash sertifikatlar talab etilmoqda, shuning uchun ham 10-11-sinflarga ingliz tilini qisqa vaqt ichida o'rganish dolzarb muammolardan biriga aylandi.

Ingliz tilini O'rganishdagi Muammolar

Yoshlarning eng katta muammolaridan biri shundaki, bu yoshdagi o'quvchilar ingliz tilini tezroq o'rganishni ko'zlaydilar. Nimagaki, ular ma'lum bir maqsad asosida til o'rganadilar, masalan ayniqsa o'g'il bolalar IELTS olib boshqa davlatga borish yoki faqat o'qishga kirish uchun ham sertifikat olishni maqsad qiladilar. Bundan tashqari, ko'proq yangi so'zlarni yodlash va ullarni so'zlashuvda qo'llay olish, ingliz tilida gapirishda grammatik xatolarga duch kelish, gap tuzish jarayonida o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlarni to'g'ri qo'llay olish ham bir muammodir. Hozirgi kunda ingliz tili kurslari ko'p ochilganligi sababli deyarli barcha o'quvchilar o'sha yerga borib ingliz tilini o'rganadilar.

Shuning uchun, guruh asosida til o'rgatish ularning gapirish mahoratini tezroq o'stirishda yaxshi foyda beradi. Biroq xorijiy tillarni guruhlarda o'rganish davomida ajratilgan vaqtning ba'zida barcha o'quvchilar bilan ham ishlashga yetmasligi, dars yuzasidan berilgan axborotlarning barchaga birday tushunarli bo'lmasligi kabi muammolarga duch kelishi ham mumkin.[1, 2-bet].

Nafaqat ingliz tilini balki barcha xorijiy tillarni o'qituvchi bilan individual o'tish, mavzuni yaxshi tushunishiga, bilmaganini uyalmasdan yoki qo'rmasdan so'rash orqali o'quvchi tilni oson egallashga imkon yaratib beradi. Lekin, so'zlashish mahorati tez rivojlanmasligi mumkin. Bu borada Toni Robins "Eng yaxshi usul va qoidalar ham muvaffaqiyatning atiga 20 foizini tashkil etadi, qolgan 80 foizi inson psixologiyasiga bog'liqdir" deb aytadi [2, 73-bet].

O'ziga Bo'lgan Ishonchsizlik

Ma'lumki, o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchsizligi tufayli odamlar oldida muloqot qilishda uyaladilar, fikrlarini to'liq bayon qilib berolmaydilar va xato qilib qo'yishdan qo'rqaqlar. Insonning o'ziga bo'lgan ishonchi har doim yangi narsalarni tez o'rganishga bo'lgan qiziqishini hamda qo'rmasligini oldini oladi. Har bir ishning o'ziga yarasha qiyinchiligi, muammosi bo'lganidek yechimi ham mavjud. Bular misol bo'la oladi:

O'yinlar Orqali O'rgatish

O'yinlar o'quvchilarни ko'proq jalb qiladigan faoliyat turidir. O'yinlar ta'lim va o'rganishda ham juda muhim rol o'ynaydi. Talabalar bilan sinflarda o'ynash mumkin bo'lgan ko'plab o'quv o'yinlari mavjud. O'yinlar so'z boyligini oshirishga yordam beradi. Har xil turdag'i jummalarda yetishmayotgan so'zni joylashtirish o'yini mavjud. Bu so'z boyligini juda ko'p shakllantiradi. Talabalar so'zlarning turlarini va ularning ma'nosini va ularning gapda joylashishini tushunishadi. Ingliz tilini o'rganish jarayonida o'qituvchilar sinfda o'yin o'ynash uchun foydalanishlari kerak [3].

Yana bir yechimlardan biri bu inglizcha qo'shiqlar yoki podkastlar tinglashdir, chunki eshitish orqali so'z boyligi oshadi, yangi so'zlarning qanday talaffuz qilishni o'rganadilar. Va shuningdek, ko'proq inglizcha kinolar, multfilmlar ko'rish, yangiliklar, maqolalar, gazeta, jurnal va kitoblarni inglizcha o'qish ham so'zlashuvga yordam beradi.

O'z Ustida Ishlash

Bir tilni o'rganish uchun avvalo inson o'z ustida qattiq ishlashni, doimiy ravishda mashq qilib borishni kun tartibiga eng asosiy vazifa sifatida belgilashlari talab etiladi va dangasalikni bir chetda surib qo'yishlariga to'g'ri keladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ingliz tilini o'rganish nafaqat insonning o'zi uchun balki kelajakda ham farzandlari uchun muhim rol o'ynaydi. Kelajakda ham har kim o'z kasbining yetuk mutaxassis bo'lishida nafaqat ingliz tili balki boshqa tillarni o'rganish ham juda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, har bir ishning o'ziga yarasha qiyinchiligi va muammosi mavjud, lekin ingliz tilini o'rganish jarayonida bularga duch kelmaslik uchun biroz mas'uliyatli bo'lish, o'z ustida doimiy ravishda ishlash, dangasalik qilmaslik va o'ziga bo'lgan ishonchi kuchli bo'lishi eng asosiysi hech qachon taslim bo'lmaslik lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. F.M. Muhammadjonov. “O‘rta maktab o’quvchilarining ingliz tilini o’rganishda duch keladigan qiyinchiliklar”.
2. T. Robins. “Maqsadga qanday erishiladi” 2013.
3. M. Siddiqova. “Ingliz tilini o’rganishdagi muammolar va yechimlar”.

ТУРКИСТОНДА ЯГОНА ҚИШЛОҚ ХҮЖАЛИГИ ВА СУВ СОЛИГИНИНГ ЖОРИЙ ЭТИЛИШИ

Малоҳат Роҳаталиевна Умирзакова

“Тарих” кафедраси докторанти,
Тарих факултети НамГУ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14747915>

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолама Туркистонда совет ҳокимияти томонидан олиб борилган солиқ сиёсати, қишлоқ хўжалигидағи оғир иқтисодий аҳвол, қишлоқ хўжалигини тиклашида Ягона қишлоқ хўжалиги солиги ҳамда ирригация соҳасини йўлга қўйишида Сув солигини жорий этилиши, областлардан ундирилиши архив манбаларига асосланган ҳолда ёритилган.

Калим сўзлар: Туркистон, совет ҳокимияти, солиқ сиёсати, Ягона қишлоқ хўжалик солиги, Сув солиги, рубль.

Малоҳат Роҳаталиевна Умирзакова,

Докторант кафедры «История», факультет истории, НамГУ
Введение Единого сельскохозяйственного и водного налога в Туркестане

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается налоговая политика, проводимая Советским правительством в Туркестане, тяжелое экономическое положение в сельском хозяйстве, введение Единого сельскохозяйственного налога при восстановлении сельского хозяйства и введение Водного налога при создании ирригационной отрасли и сбор данного налога по областям на основе архивных источников.

Ключевые слова: Туркестан, Советская власть, налоговая политика, Единый сельскохозяйственный налог, Водный налог, рубль.

Maloxat R. Umirzakova,

Doctoral student of the “History” department, faculty of History, Namangan state university

IMPLEMENTATION OF UNIFIED AGRICULTURE AND WATER TAX IN TURKESTAN

ABSTRACT

This article highlights the tax policy pursued by the Soviet government in Turkestan, the difficult economic situation in agriculture, the introduction of the Unified Agricultural

Tax during the restoration of agriculture, and the introduction of the Water Tax during the creation of the irrigation industry.

Key words: *Turkestan, Soviet power, tax policy, Unified Agricultural Tax, Water Tax, ruble.*

Туркистан да Ягона қишлоқ хўжалиги ва Сув солиги

Долзарблиги. Ҳар қандай давлат тараққиёти ва иқтисодиётининг шаклланишини солик сиёсатисиз тасаввур этиш қийин. Мазкур мақолада Россия ва Туркистан муносабатлари Марказ манфаатларига йўналтирилиши давомида иқтисодий соҳада тўла назорат қилишга уриниш, қишлоқ хўжалигининг издан чиқиши, Туркистан АССРда Қишлоқ хўжалиги солиги ҳамда ирригация соҳасини тиклашда Сув солигини жорий этилиши баён этилади.

Методлар. Мавзуни очиб беришда тарих фанининг хос методларидан қиёсий-таҳлил, манбалар таҳлили, фанлараро методлардан фойдаланилди. Шу билан бирга тарихийлик, даврийлик ва холислик тамойили асосида мавзуни ёритиб беришга ҳаракат қилинди.

Натижা. Туркистонда янги иқтисодий сиёсатга ўтилиши билан қишлоқ хўжалигида турли хил солиқлар жорий этила бошланди. Масалан, совет ҳокимияти Туркистонда очлик ва вайронагарчиликка қарши курашда муҳим тадбирлардан бири сифатида қишлоқ хўжалигида 1918 йил охиридан от-улов ва меҳнат мажбуриятини жорий этди¹. Мавжуд тарихий маълумотларга кўра, меҳнат мажбурияти асосида олиб борилган озиқ-овқат тақсимотида ҳам совет ҳокимияти мутасаддилари масjidларни қуршаб олиб, уларга нисбатан милтиқни ўқталиб, ўн минглаб дехқонларни ариқ тозалаш, йўлларни таъмирлашга олиб чиқсанликлари ҳақида маълумотлар учрайди². Бундан ташқари, қишлоқ хўжалигида аҳоли экинларига ҳашоратлар етказаётган зарарни бартараф этиш учун, чигиртка (зараридан)дан тозалаш каби меҳнат мажбуриятларини ҳам бажарганлар. Бунинг учун биргина қарорнинг ўзи кифоя эди. Шундай қарорлардан яна бири Туркистан МИҚ ва ХКС томонидан қишлоқ хўжалигининг ирригация ишларида меҳнат мажбуриятлари ва уни пул шакли билан алмаштириш мумкинлиги, меҳнат қилиш мажбуриятларини тақсимлаш ва фойдаланиш мазмунида 1924 йил 26 апрелда қабул қилинган қарор бўлиб, унга кўра:

-1923-1924 хўжалик йилида қишлоқ аҳолисидан ирригация ишларида фойдаланишда меҳнат мажбуриятлари тарзидаги солиқларга жалб этиш;

-меҳнат мажбуриятлари тарзидаги солиқларни ўташда от-улов билан иш қуни, ишлаб бериш, ирригацияда топшириладиган ашёлар сони Иссиқлик электр станциялари (ИЭС) томонидан белгиланиши;

-меҳнат мажбуриятлари тарзидаги солиқларга асосий қувурларни, тақсим ва ташламаларни тозалаш, таъмирлаш ва ариqlарни мустаҳкамлаш, аҳолига қарашли

¹ Самарканд тарихи. –Тошкент.: Фан, II- том, 1971. -Б. 54.

² Голованов А.Бумеранг//Звезда Востока.1991.-№4.-С.84.

бўлган қурилиш материалларни тузатиш, ариқ бошидаги сувни назорат қилиш кабилар белгиланди³.

Сув хўжалиги бошқармаси (СХБ) ирригация тизимидағи меҳнат ва от-улов мажбурияти тарзидаги солиқларни пул кўринишида тўланишини назорат қилиши белгиланган. Махсус комиссия йигилган пулларни Сув хўжалиги депозитига туширган. Меҳнат ва от-улов каби мажбуриятларни бажаришдан бош тортганлар эса РСФСР ЖК 79- моддасига кўра жиноий жавобгарликка тортилиши ҳам белгилаб қўйилган⁴.

Меҳнат ва от-улов мажбурияти солиғини қанча миқдорда ундирилиши олдиндан режалаштирилган бўлса-да, амалда солик тўловчиларнинг рўйхати мутлақо тузилмаганлиги ва солиқни ундириш ишларини яна қайтадан бошлаш зарурати келиб чиқкан. Солик ҳисобини чиқариш, солиққа тортиш билан боғлиқ жараёнлар ҳужжатларда кўзда тутилгандек ташкил этилмаган, аксинча, “узуқ-юлук”, кўр-кўронга олиб борилган⁵.

1923 йил 13 июнда Туркистон АССР МИҚ ва ХКС томонидан Ягона қишлоқ хўжалиги солиги тўғрисида 21 банддан иборат бўлган декрет қабул қилинди⁶. Мазкур декретга мувофиқ, 1924 йил 27 августда айрим жойларни чорвадор ҳудудлар деб топиш тўғрисида қарор қабул қилинди⁷.

Мазкур қарорга кўра суғориладиган ерларни тўққиз тоифага ажратиб, ундириладиган солиқлар миқдори ишлаб чиқилди. Пахта ва қизилча экилган майдонлар, болалар интернатларида уларнинг меҳнати билан ишлов берилган майдонлар, 1920-1922 йиллар мавсумида суви қочган ерлар Ягона қишлоқ хўжалик солиғининг 10 фоизидан озод этилган⁸. Табиий оғатлар туфайли Ягона қишлоқ хўжалик солиғини камайтириш ёки тўла озод қилиш ҳолатлари ҳам кўзда тутилди. Мазкур қарорда милиция ходимларининг оила аъзолари, Қизил армия сафида хизмат қилаётганларнинг оиласлари (экин майдонларнинг $\frac{3}{4}$ қисми ҳисобидан-диссертант) ҳамда ногиронлар учун имтиёзлар берилди⁹.

Пахтачиликни ривожлантирида сувдан тўғри фойдаланиш учун 1921 йилнинг февралида Туркистонда “Сув тўғрисида”ги қонун қабул қилинди. 1921 йил 28 февралида “Туркистон АССРда сув иншоотларидан фойдаланганлик учун тўловлар” тўғрисида декрет қабул қилинди. Туркистон сув хўжалиги бошқармаси (СХБ)¹⁰

³ Сборник декретов, постановлений и распоряжений правительства ТССР за 1924 г.январь-февраль, март-апрель.Издательство: Комиссариат Юстиции ТАССР,1924.-С.16.

⁴ Сборник декретов, постановлений и распоряжений правительства ТАССР за 1924 г.январь-февраль, март-апрель.Издательство: Комиссариат Юстиции ТАССР.-С.17,18.

⁵ Уз МА, Р-37-фонд,1-рўйхат, 1326-иш,19 –варак.

⁶ Сборник важнейших декретов, постановлений и распоряжений правительства ТАССР 1917-1923гг. – Ташкент.:Комиссии СНК,1923. –С. 233.

⁷Сборник декретов, постановлений и распоряжений правительства ТАССР за 1924 год. –Ташкент.: Комиссии СНК,1924.-С. 34-35.

⁸ Сборник важнейших декретов, постановлений и распоряжений правительства ТАССР. 1917- 1923гг. Ташкент:Комиссии СНК,1923.-С.235, 236.

⁹ Сборник важнейших декретов, постановлений и распоряжений правительства ТАССР. 1917- 1923гг. Ташкент:Комиссии СНК,1923. – С.235, 236.

¹⁰ Сув хўжалиги бошқармаси-1918 yil 17 iyunda Turkiston XKS qarori bilan Respublika suv xo'jaligi boshqarmasi ("Turkvodxoz") tuzilib, uning boshlig'i etib M.V.Rykunov tayinlangan.“Turkvodxoz” dastlab mavjud sug‘orish tizimlarini, loyqalangan kanallarni, eskirgan sug‘orish inshootlarini saqlash, kanal va inshootlardan foydalanishni tashkil etish, suvdan foydalanish qoidalari ni ishlab chiqish bilan shug‘ullangan.1919-yil avgust oyida Turkiston MIQ dekreti bilan “Turkiston Respublikasida suvdan foydalanishning vaqtinchalik qoidalari”ni tasdiqladi. 1924 yil 15 noyabrda M.V.Rykunov boshchiligidagi Sredazvodxoz(O’rta Osiyo Suvxo’jaligi) tashkil etildi/<https://ru.wikipedia.org>.

ҳамда Туркистон мөҳнат ва мудофаа бўлими Марказий ижроия қўмитасининг раҳбарлигида, 1923 йилнинг якунига қадар Ўрта Осиё хўжалик банкининг ирригация жамғармасига 750.000 рубль “Сув солиғи”ни¹¹ ўтказиб беришга қарор қилди. Мазкур солиқнинг 30 фоизи, яъни 225 000 рубль Сирдарё обlastидан, 28 фоизи-210 000 рубль Самарқанд обlastидан, 18 фоизи-135 000 рубль Еттисув обlastидан, 17 фоизи-127 000 рубль Фарғона обlastидан, 2 фоизи- 15 000 рубль Амударё ҳамда 5 фоизи-38 000 рубль Туркман обlastидан 1923 йилнинг 15 май кунидан кечиктирилмасдан йиғиб олиш кўзда тутилди¹². 1924 йилнинг 1 октябрига қадар сув солиғи ҳисобидан Туркистон АССР Молия ишлари комиссарлигининг қишлоқ хўжалик банкига жами 400.000 рубль атрофидаги маблағлари ирригация тармоқларини тиклашга ўтказиб берилди¹³. Мазкур декрет остида сувдан фойдаланувчи аҳолига ҳам “Сув солиғи” жорий этилди.

Хулоса. Солиқ турларининг қисқартирилиши ҳамда Ягона қишлоқ хўжалик солиғини амалда жорий этилиши, аҳоли манфаатларига эмас, балки солиқ миқдорини оширишга хизмат қилди. Ирригация соҳасини тиклашда Сув солиғини обlastлардан тақсимот асосида ундириш, экин майдонлари кенгайтириш, ариқларни тозалаш, от-улов каби мөҳнат мажбуриятларига жамоа бўлиб сафарбарликка оид мурожаат, даъват ва рағбатлантиришлар Марказ талабларини бажариш мақсадида олиб борилган.

Сноски/ Иқтибослар/References:

1. Самарқанд тарихи. –Тошкент: Фан, II том, 1971.(История Самарканда.1971 г.)
2. Голованов А.Бумеранг//Звезда Востока.1991.-№4.
3. Гулямов С.Г. Создание предпосылок социализма в сельском хозяйстве Узбекистана.-Ташкент.: Фан, 1972.
3. Сборник декретов, постановлений и распоряжений правительства ТССР за 1924 г.январь-февраль, март-апрель.Издательство: Комиссариат Юстиции ТАССР,1924.
4. Ўз МА, Р-37-фонд,1-рўйхат, 1326-иш,19 –варак. (NA RUZ.R.37-f.)
5. Сборник важнейших декретов, постановлений и распоряжений правительство ТАССР 1917-1923гг. –Ташкент.:Комиссии СНК,1923.

¹¹ Сув солиғи-сув иншоотлари ва тармоқларидан фойдаланувчи саноат корхоналари, сунъий сугориладиган ер эгаларидан сувдан фойдаланганлик учун ундирилган. БМИҚ ва ХКС 1922 йил 8 майда қарори остида ТАССР ХКС томонидан 1922 йил 1 октябрдан амалга жорий этилган.Сув солиғини тўлаш ва ундириш тартиби ТАССР Молия ишлари халқ комиссарлиги кўрсатмаси асосида ХКС томонидан белгиланган.1922-1923 йил учун 750 000 рубль олтин ҳисобида белгиланган. Қаранг: Сборник декретов, постановлений и распоряжений Правительства ТАССР за 1923 г.-Ташкент.:Изд. НКЮ ТАССР.-С.229; Воскобойников Э., Зевелев А. Турккомиссия ВЦИКа и СНК РСФСР и Туркбюро ЦК РКП(б) в борьбе за укрепление советской власти в Туркестане.-Ташкент.: Государственное издательство Узбекской ССР, 1951.-С.183.

¹²Сборник важнейших декретов, постановлений и распоряжений Правительства ТАССР за 1922 г.-Ташкент: Комиссии СНК, 1922.-С.229, 230.

¹³ Гулямов С.Г. Создание предпосылок социализма в сельском хозяйстве Узбекистана.-Ташкент.: Фан, 1972.- С.59.

OLIY TA'LIMDA TYUTORLIK FAOLIYATINING MUHIM AHAMIYATI

Nasiba Ramazanova Kadambayevna
Urganch davlat universiteti ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti tyutori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14748020>

Annotatsiya – Ushbu maqolada tyutorlik faoliyatining nechog'lik muhimligi, uning faoliyatining maqsadi va vazifalari, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga taylorlashning bosqichlari haqida ilmiy fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar – ta'lim, tizim, faoliyat, tyutor, konsepsiya, talaba, o'quv ishi, o'quv reja, seminar, loyiha, muloqot.

Ma'lumki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2019-yil 8-oktyabrdagi – O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF5847 – sonli Farmoni imzolandi. “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da – oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, fan sohalari bo'yicha professor o'qituvchilarning kasbiy muloqot maydonchalarini yaratish, ta'lim sifatini ta'minlash jarayoniga talabalarni keng jalb etish hamda “tyutorlik” tashkiliy-metodik yordam tizimini joriy etish orqali talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish belgilab qo'yilgan. Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida bir qancha tizimli yangilik va o'zgartirishlar shakllantirildi. Ular qatorida 2021 yil 1-sentyabrdan boshlab talabalar bilan ishlash bo'yicha “guruh murabbiyi” instituti bekor qilinib, o'rniga talabalar bilan ishlaydigan “tyutorlar” amaliyoti yo'lga qo'yildi. 2021-yil 9-sentyabrdan Vazirlar Mahkamasining “Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 563-sون qarorining qabul qilinishi ham talaba-yoshlarimizga yaratilayotgan sharoitlarni yanada takomillashtirishga qaratildi. Qarorda – talabalarni arzon, ammo barcha qulayliklarga ega turar-joy bilan ta'minlash;talabalarga tarkibi va xavfsizlik sifati kafolatlangan – sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini arzon narxlarda yetkazib berish;bakalavriatning 1-3-kurslari doirasida har 120-150 nafar talabaga 1 ta shtat birligi hisobida «tyutor» lavozimini tayinlash kabi – oliy ta'limda uzoq vaqtdan beri loyihalashtirib kelingan qator tizimli qulaylik va imkoniyatlar belgilandi.

«Tyutor» yangi atamasi nutqimizga ingliz tilidan o'zlashgan bo'lib, u ustoz va murabbiy vazifasini bajaruvchi shaxs ma'nosini ifodalaydi. Tyutor lavozimi 2021-yil 1-sentyabrdan boshlab talabalar bilan ishlash bo'yicha “guruh murabbiyi” instituti bekor qilingach, uning o'rniga talaba-yoshlar bilan ishlovchilar – tyutorlar sifatida tashkil etildi.Mazkur lavozim egasi, tom ma'noda, talabani o'qitish tizimi bilan uzviy bog'lanishini ta'minlovchi; talabada o'quv jarayoni davomida o'z salohiyatini namoyon qilish, o'zini, o'zligini, intilishu dunyoqarashini teran anglash, o'z faoliyatini ongli ravishda nazorat qilish, xatti-harakatlarini tizimli boshqarish borasida to'g'ri qarorlar qabul

qila olish malaka va ko'nikmalarini rivojlantiruvchi shaxs sanaladi. U talabaga har bir faoliyat va harakatlarining oqibatlarini ongli ravishda anglashga, hayotda o'z orzulari ro'yobini ta'minlash yo'llarini topishga ko'maklashadi. Tyutorning faoliyati samarasi talabaning o'qib o'rganishga bo'lgan ichki intilishi kuchayishi va ta'limning samarali jarayonga aylanishi bilan o'lchanadi. Tom ma'noda, oliy ta'lim tizimida ta'limtarbiya jarayonining samaradorligi «professor-o'qituvchi – talaba – tyutor» hamkorligida ta'minlanadi.

Tabiiyki, tyutor lavozimini egallagan oliy ma'lumotli shaxs, ya'ni murabbiy, ustoz, talaba ta'lim olayotgan soha mutaxassis sifatida pedagogik, psixologik, etik, estetik jihatdan barkamol, o'zligini anglagan, dunyoqarashi keng, sog'lom fikrli, intellektual salohiyatli bo'lishi lozim. Shuning uchun ham tyutorning oylik ish haqi o'qituvchi-stajyorning bazaviy lavozim maoshiga tenglashtirilgan. Oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy va ahloqiy-tarbiya, o'quv va o'quv-uslubiy hamda ilm-fan, innovasion va ilmiytadqiqot yo'nalishlarida faoliyat olib borishi mo'ljallangan tyutorlar faoliyati dunyo ta'lim tizimi uchun yangilik emas. Manbalarga ko'ra, tyutorlik faoliyatini yo'lga qo'yish dastlab oila bolalariga uylarida xususiy ta'lim berish jarayonida shakllangan va rivojlangan. Keyinchalik bu ommaviy ta'lim tizimiga ko'chgan. Jumladan, qadimgi Yunonistonda ham asosiy ta'lim jarayoniga yordamchi sifatida tyutorlar faoliyati yo'lga qo'yilgan edi. Hozirda dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida tyutorlik xizmatidan foydalaniladi. Hatto ular Yaponiya, Germaniya, Angliya, Fransiya, Finlandiya, Koreya, Rossiya kabi o'nlab mamlakatarda maxsus o'qitiladi, tyutorlar tahsil yakunida diplom olishadi. Masalan, Germaniya, Koreya, Rossiya mamlakatlarida pedagog-xodimlar tayyorlash sohasiga ixtisoslashtirilgan oliygoohlarda bakalavr va magistratura bo'yicha maxsus tyutorlik kurslari mavjud. Sivilizatsiya erishgan yurtlarda tyutorlik markazlari va assosiasiylar faoliyat yuritishini kuzatishimiz mumkin.

Tyutorning lavozim vazifasi asosida boshqa odam(ta'lim oluvchi)ga o'qishni samarali va qiziqarli jarayonga aylanirishga yordam berish mo'ljali turadi. Tyutor bu mo'ljalni ro'yobga chiqarish uchun ham butun guruh bilan, ham individual tarzda ishlashi kerak bo'ladi. **Oliy ta'limda tyutorlar quyidagi lavozim vazifalarini tizimli reja asosida olib boradilar:**

ma'ruzachi tomonidan o'qitilayotgan fanni o'zlashtirishda ta'lim oluvchilarga yordam berish va shu orqali dunyoqarashi endi shakllanayotgan talabani muntazam ilm o'rganishga odatlantirish; talabaning o'qishi va kundalik hayoti o'rtasida muvozanat o'rnatilishini ta'minlash;

talabalarga vaqtini menejment qilish masalalarida ta'sir ko'rsatish; talaba tanlagan soha ilmiga oid qiziqarli, ta'sirli ma'lumotlarga urg'u berish, tanlagen sohasi, kasbiga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash;

talabaning kuchli taraflarini, ichki (yashirin) qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga ko'maklashish; talabani o'z kamchiliklari ustida ishlashga o'rgatish; talabalarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishiga ko'maklash;

talabalarni Vatanga, el-yurtga, milliy qadriyatlarimizga muhabbat ruhida tarbiyalash; talabalarni turli ilmiy to'garaklarga jalb etish va h.k.

Belgilangan vazifalar tyutorlarimizdan yuksak saviya va muntazam mehnatni talab etadi. Oliy ta'lim tizimida tyutorlar faoliyatini yo'lga qo'yish, ularni lavozimga tayinlash bo'yicha tyutorlar oldiga qo'yilgan bir qancha talablar mavjud. Ular quyidagilardan tashkil topgan.

- a) *Tyutorlar oliy ma'lumotga ega bo'lishi (ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega shaxslarga afzalliklar beriladi);*
- b) *25 yoshdan kichik, 55 yoshdan (ayollar uchun 50 yosh) katta bo'lmasligi;*
- c) *Pedagogik va psixologik, o'quv-tarbiyaviy, o'quv-uslubiy, ta'lim tizimida boshqaruva faoliyati bilan shug'ullangan, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda 2 yildan kam bo'lмаган (2 yildan ko'p bo'lганларга ustuvorlik beriladi) mehnat stajiga ega bo'lishi;*
- d) *Qonunchilik hujjatlariga muvofiq ta'lim berish huquqidан mahrum etilmagan bo'lishi;*
- e) *Namunaviy shaxsiy fazilatlarga – intellekt, madaniyatli, ijodiy, xushmuomalalik, vatanparvarlik va tashabbuskorlik qobiliyatlariga ega bo'lishi, mas'uliyat hissi, mustaqil ish tutish xususiyatlariga ega bo'lishi zarur.*

Tyutorlikka nomzodlar Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor tomonidan tajribali, talabalar orasida katta hurmat va e'tibor qozongan, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar uslubiyati va amaliyotini chuqur anglab yetgan, pedagogik va psixologik bilim va tajribaga ega bo'lgan professor-o'qituvchi va boshqa xodimlar orasidan tanlanib, universitetga ishga qabul qilish bo'yicha komissiyaga taqdim etiladi. Ishga qabul qilish komissiya xulosasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Tyutorlik faoliyatining markazida talaba turadi. Bu jarayon muayyan shaxsning shaxsiy ehtiyojlarini, maqsadlari va sharoitlarini unumli tashkil etish va ta'minlashni o'z ichiga qamrab oladi. Samarali tyutorlik jarayoni aniq yo'nalishlarga va talabalarning ehtiyojlarini qondirish uchun vaqt o'tishi bilan doimiy ravishda tuziladigan va moslanadigan rejaga ega bo'lislilikni talab qiladi. Bir so'z bilan ta'kidlaganda, tyutorlik talabaning o'sishi va rivojlanishiga qaratilgan o'quv hamkorligidir.

O'qituvchilar va tyutorlarning egallagan o'rni bir biridan farq qilsada, talabalarning ta'lim olish jarayonida ikkisi ham birdek muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilar – o'quv rejasini ishlab chiqish, darslarni o'tkazish va talabalar faoliyatini baholash uchun mas'uldirlar. O'qituvchilar ham xuddi tyutorlardek o'z o'quvchilari bilan individual aloqa o'rnatadilar, lekin ularning ishi asosan ma'ruzalar va mashg'ulotlar orqali bir guruh o'quvchilar uchun kursni belgilashdan iborat. Tyutorlar – tyutor sifatida ular kursni boshidan mutloq o'zgartirib tashkillashmaydi. Buning o'rniga, tyutorlar o'quvchilarni o'qituvchi bergen yo'nalish bo'yicha yo'naltiradi. Talabaga ta'lim olish, darslarni o'zlashtirish va o'qishlarini boshqarishda yordam beradi. Demak, tyutorlar talabalarrni qo'llab-quvvatlash orqali o'z kutgan natijalariga erishishlari mumkin. Tyutor har bir talabaga ularning oliygohdagi tahsili davomida yelkadosh malahatchi, ustoz bo'lishi zarur. Xalqimiz topib e'tirof etganidek, ota-onasi farzandni dunyoga keltiruvchi va unga shu dunyo mo'jizalarini ko'rsatuvchi zotlar bo'lsa, ustoz uni fikran ulug'likka eltuvchi, komillik sari yetaklovchi va shu asnoda ikki dunyo saodatidan bahramand etguvchi zotdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi - O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida||gi PF 5847 son Farmoni//lex.uz
2. Davlat oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi “Namunaviy nizom”.
3. Ковалева Т. М. О деятельности тьютора в современном образовательном учреждении // Организация тьюторского сопровождения в образовательном учреждении: содержание, нормирование и стандартизация деятельности тьютора: материалы Всероссийского научно-метод. семинара (Москва, 18–19 мая 2009 г.). М.: АПКиППРО, 2009. 188 с.
4. Елькина О. Ю. Теоретическая модель подготовки будущего учителя к формированию продуктивного опыта младших школьников // Вестник Томского гос. пед. (TDPU axborotnomasi). 2007. Вып. 7 (70). С. 23–27.
5. Muhammadovna, O. R. N. (2022). TALABA SHAXSINI INDIVIDUAL RIVOJLANTIRISHDA TYUTORLIK FAOLIYATINING ASOSIY KONSEPTSIYALARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 144-149.

IMPROVING COTTON GINNING MACHINES: ADVANCES, CHALLENGES, AND FUTURE DIRECTIONS

Akramjanov Dilmurod

senior teacher, Namangan Textile Industry Institute, Namangan, Uzbekistan

Yusupov Murodjon

bachelor student of Namangan Textile Industry Institute, Namangan, Uzbekistan

Abstract

Cotton ginning, the process of separating cotton fibers from their seeds, is pivotal to the textile industry. Modern ginning technology faces challenges such as fiber damage, energy inefficiency, and environmental concerns. This article reviews recent advancements in cotton ginning machines, focusing on innovations that enhance efficiency, minimize fiber damage, and optimize energy use. We explore the integration of automation, material science, and sensor technology in modern ginning processes, offering insights into future research and development pathways.

Introduction

Cotton ginning has been a cornerstone of the textile industry since the invention of Eli Whitney's gin in 1793. While early models revolutionized cotton processing, they often damaged fibers and consumed significant energy. With the growing global demand for high-quality cotton and sustainable production methods, there is an urgent need to improve ginning technologies. This article examines current trends and innovations aimed at addressing these challenges.

Challenges in Traditional Cotton Ginning

- Fiber Damage:** Traditional saw gins can lead to fiber breakage and reduced staple length, adversely affecting yarn quality.
- Seed Coat Fragments:** Ineffective separation leads to contamination in the cotton, reducing market value.
- Energy Consumption:** Ginning machines are energy-intensive, contributing to higher operational costs and carbon footprints.
- Labor Dependence:** Manual monitoring and adjustments reduce operational efficiency and scalability.

Recent Advancements in Cotton Ginning

1. Automation and Robotics

- Automated Feed Control:** Smart gins equipped with sensors regulate the flow of raw cotton to maintain optimal ginning speeds, reducing fiber damage.
- Robotic Maintenance Systems:** Self-cleaning and diagnostic tools improve machine uptime and reduce labor costs.

2. Material Innovations

- Wear-Resistant Components:** Using advanced alloys and composites for saw teeth and brushes minimizes wear and ensures consistent performance.

- **Fiber-Friendly Designs:** Modified saw configurations and roller gins designed to reduce mechanical stress on fibers.

3. Sensor Technology

- **Real-Time Quality Monitoring:** Advanced optical and acoustic sensors analyze fiber properties during ginning, allowing dynamic adjustments.
- **Seed Detection Systems:** Infrared and ultrasonic sensors improve seed separation, reducing contamination.

4. Energy Efficiency

- **Variable Frequency Drives (VFDs):** VFDs optimize motor speed and torque, reducing energy consumption.
- **Renewable Energy Integration:** Solar and wind-powered gins offer sustainable alternatives for energy-intensive operations.

5. Environmental Considerations

- **Dust Control Systems:** Improved air filtration and dust collection systems minimize environmental impact and enhance workplace safety.
- **Water-Saving Techniques:** Innovations in humidification systems reduce water usage while maintaining fiber integrity.

Case Studies

1. Modernized Saw Gin

A study on a redesigned saw gin incorporating sensor-based feed control demonstrated a 15% reduction in fiber damage and a 10% increase in throughput compared to traditional designs.

2. Solar-Powered Gin in Rural India

Pilot projects using solar-powered roller gins showed significant cost savings and environmental benefits, particularly in off-grid regions.

Future Directions

1. **Artificial Intelligence (AI) in Ginning:** AI algorithms can predict optimal machine settings based on input cotton properties, further reducing waste and enhancing fiber quality.
2. **Blockchain for Supply Chain Transparency:** Integrating blockchain can ensure traceability of cotton from farm to factory, promoting ethical and sustainable practices.
3. **Advanced Materials:** Research into nanotechnology and bio-based composites could yield components with superior durability and environmental compatibility.
4. **Collaborative Robotics (Cobots):** Cobots can assist human operators in maintenance and quality checks, improving efficiency and safety.

Conclusion

The cotton ginning industry is on the cusp of transformation, driven by advancements in automation, materials, and sustainability. Addressing the challenges of fiber damage, energy inefficiency, and environmental impact requires a multidisciplinary approach. By integrating cutting-edge technologies, the future of cotton ginning promises enhanced productivity, higher quality output, and a reduced ecological footprint.

References

1. Smith, J. R., & Jones, A. L. (2023). "Automation in Cotton Ginning: A Review." *Journal of Textile Engineering*.
2. Zhao, H., et al. (2022). "Energy Efficiency Improvements in Agricultural Machinery." *Sustainable Agriculture Journal*.
3. United Nations (2023). "Sustainable Practices in Textile Manufacturing."
4. Акрамжанов Д. Анализ путей влияния на жесткостные параметры пакетных рабочих органов различных факторов. // Научный журнал Universum: Выпуск: 1(70)- Январь 2020. –С. 17. <http://7universum.com/ru/tech/archive/category/170>
5. Акрамжанов Д. Исследование вопросов аналитического определения параметров жесткости пакетных конструкций. // Научный журнал Universum: Выпуск: 4(61)Апрель 2019. –С. 16. <http://7universum.com/ru/tech/archive/category/158>

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI TURLI QIZIQARLI
O‘YINLAR VA USULLAR ORQALI O‘QITISH**

Scientific supervisor: Saliyeva Ziroat Zokirovna

Ahmadaliyeva Nazokat Faxriddin qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti, Ingliz tili fakulteti

2-kurs, 2306-guruh talabasi

Axmadaliyevanazokat8@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14641003>

Annotatsiya

Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishda qiziqarli va interaktiv o‘yinlar va metodlarning samarali qo‘llanilishini ko‘rib chiqadi. Maqolada o‘quvchilarining ingliz tilini o‘rganish jarayonida motivatsiyasini oshirish, yangi so‘zlarni tez va samarali eslab qolish, shuningdek, grammatika va talaffuzni yaxshilash uchun turli o‘yinlar va faoliyat turlari tavsiya etiladi. Xususan, "Simon says", "Charades", so‘z kartochkalari, qo‘schiqlar, rasmi hikoyalar va texnologik dasturlar kabi o‘yinlar orqali til o‘rganishning qiziqarli va oson usullari taqdim etiladi. Ushbu usullar bolalarning ingliz tilini o‘rganishdagi qiziqishini oshirib, ularni interaktiv va faol tarzda darslarga jalb qilishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, ingliz tili, o‘qitish metodlari, o‘yinlar, interaktiv darslar, motivatsiya, til o‘rganish, grammatika, talaffuz, so‘z kartochkalari, rol o‘ynash, qo‘schiqlar, texnologik vositalar, rasmi hikoyalar, kinestetik usul.

Kirish

Ingliz tili bugungi kunda global kommunikatsiyaning asosiy vositalaridan biriga aylangan. Bu tilni o‘rganish yosh bolalar uchun ham zarur bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga uchun ingliz tilini o‘rgatish jarayoni alohida e’tibor talab etadi. Bolalar o‘z yoshiga xos qiziqish, faoliyat va o‘rganish usullariga ega, shuning uchun ingliz tilini o‘rgatishda an’anaviy darslardan tashqari, qiziqarli va interaktiv o‘yinlar ham muhim ahamiyatga ega. O‘yinlar nafaqat o‘quvchilarining til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, balki yangi bilimlarni mustahkamlashda ham samarali vosita hisoblanadi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishda foydalanish mumkin bo‘lgan turli o‘yinga asoslangan metodlar va usullar haqidagi so‘z yuritamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatish

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatish jarayoni ularning rivojlanish xususiyatlari mos bo‘lishi kerak. Bolalar yoshiga qarab turli o‘qitish metodlarini talab qiladi. Ular o‘rganayotgan materialni eslab qolish uchun faqat mantiqiy fikrlash emas, balki hissiy va jismoniy faoliyatni ham qo‘llashadi. Ingliz tilini o‘rgatishda eng samarali metodlar qatoriga interaktiv o‘yinlar, qo‘schiqlar, rasmi hikoyalar, rolli o‘yinlar va texnologik

vositalardan foydalanish kiradi. Bu metodlar o‘quvchilarning tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularni faolroq o‘rganishga undaydi.

Ingliz tilini o‘rgatishda o‘yinlarning ahamiyati

Ingliz tilini o‘rganishda o‘yinlar bolalarga tilni o‘zlashtirishda yordam beradi. O‘yinlar orqali o‘quvchilar nafaqat so‘z boyligini oshiradilar, balki grammatik qoidalarni ham amaliyotda qo‘llashadi. Misol uchun, “Simon says” kabi o‘yinlar yordamida bolalar ingliz tilidagi buyruqlarni o‘rganishadi. Shuningdek, “Charades” (qiyofalar) o‘yini orqali bolalar ingliz tilidagi so‘zlarni tasvirlashni o‘rganadilar, bu esa ularga so‘zlarni yaxshiroq eslab qolish imkonini beradi.

Grammatika va talaffuzni o‘rgatishning innovatsion usullari

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun grammatika va talaffuzni o‘rgatish qiyin bo‘lishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchilar grammatikani o‘yin va faoliyatlar orqali o‘rgatishga harakat qiladilar. “Sentence Scramble” kabi o‘yinlar yordamida bolalar jumlalarni tuzishni o‘rganishadi. Shu bilan birga, qo‘shiqlar orqali talaffuzni yaxshilash mumkin, chunki qo‘shiqlarda talaffuz qoidalari oddiy va bolalarga tushunarli tarzda taqdim etiladi.

Texnologiyalardan foydalanish

Hozirgi kunda bolalar uchun turli mobil ilovalar va interaktiv dasturlar mavjud. Masalan, “Duolingo”, “ABCmouse” va boshqa onlayn resurslar yordamida o‘quvchilar ingliz tilini o‘rganishda texnologiyalardan foydalanadilar. Bu dasturlar orqali o‘quvchilar so‘zlarni, jumlalarni va grammatik qoidalarni o‘rganishlari mumkin, va bu jarayon o‘quvchilarga qiziqarli va interaktiv tarzda taqdim etiladi.

Kinestetik o‘qitish usuli

Kinestetik o‘qitish usuli jismoniy faoliyatga asoslanadi. Ba’zi bolalar tilni jismoniy faoliyat orqali o‘rganishadi. Masalan, “touch the floor”, “jump up” kabi buyruqlar yordamida o‘quvchilar ingliz tilidagi so‘zlarni eslab qolishadi. Bu usul nafaqat til o‘rganish, balki bolalar uchun energiya sarflab, sog‘lom rivojlanish uchun ham foydalidir.

Xulosa

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishda o‘yinlar va interaktiv metodlar juda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarning qiziqishini oshirish va tilni samarali o‘rganish uchun innovatsion yondashuvlarni qo‘llash zarur. Bunday metodlar nafaqat til o‘rganishni qiziqarli va samarali qiladi, balki bolalarning umumiy rivojlanishiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching*. 4th Edition. Pearson Longman.

Ushbu kitob ingliz tilini o‘rgatish bo‘yicha metodik yondashuvlarni va strategiyalarni o‘z ichiga oladi, shu jumladan o‘yinlar va interaktiv metodlari

2Andarsen-Freeman, D. (2014). *Techniques and Principles in Language Teaching*. 3rd Edition. Oxford University Press.

Bu manba til o‘rgatishning turli metodlarini tahlil qiladi va boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishda samarali usullarni tavsiya etadi

3. Moon, J. (2000). *Children Learning English*. Macmillan Education.

Bolalar uchun ingliz tilini o‘rgatish bo‘yicha amaliy maslahatlar va usullarni taqdim etadi, shuningdek, o‘yin va faoliyatlarning ahamiyatini ta’kidlaydi.

4. Cameron, L. (2001). Teaching Languages to Young Learners. Cambridge University Press.

Ushbu asar yosh bolalar bilan ishslashda ingliz tilini o‘rgatishning samarali metodikalarini o‘rganadi.

5. Doff, A. (1988). Teach English: A Training Course for Teachers. Cambridge University Press.

Ingliz tilini o‘rgatishda zamonaviy o‘qitish metodlarini, shu jumladan o‘yin va rolli o‘yinlarni qanday qo‘llashni ko‘rsatadi.

6. Thornbury, S. (2006). An A-Z of ELT: A Dictionary of Terms and Concepts in English Language Teaching. Macmillan Education.

Ingliz tilini òrgatish bøyicha asosiy atamalarni va usullarini tushuntiradi, shu jumladan bolalar uchun interaktiv öyinlarning roli.

7. Slattery, M., & Willis, J. (2001). English for Primary Teachers: A Handbook of Activities and Classroom Language. Oxford University Pres

Boshlang‘ich sinf öquvchilari uchun ingliz tili òrgatishning innovatsion va qiziqarli usullarini va shu jumladan öyinlarni taqdim etadi.

8.Richards, J.C.,&Rodgers ,T.S .(2014). Approaches and Methods in Language Teaching . 3 rd Edition .Cambridge University Press.

Bu manba turli òrgatish usullari va metodlarini tahlil qiladi ,shuningdek,bolalar uchun til òrganishni osonlashtiradigan innovatsion usullarga e’tibor qaratadi.

9. Reilly, V., & Ward, T. (2013). Teaching Practice: A Guide for Early Career Teachers. Routledge.

Òquvchilarga til òrgatishda öyinlar va faoliyatlar orqali qiziqarli va samarali darslar yaratishga oid qöllanma.

JAMIYAT VA TARIX FALSAFASI

Tojiddinova Nargiza Shuxratovna

*Andijon davlat universiteti akademik liseyi Tarix fani o'qituvchisi
(Andijon viloyati, Andijon shahri)*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14750223>

Annotation: this article expresses information on the philosophy of society and history.

Keywords: society, state, civil society, civilization, culture, value, material and spiritual values, needs, value, nature.

Аннотация: В этой статье представлена информация об обществе и философии истории.

Ключевые слова: общество, государство, гражданское общество, цивилизация, культура, ценность, материальные и духовные ценности, потребности, ценность, природа.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat va tarix falsafasi borasida ma'lumotlar ifodalanadi.

Kalit so'zlar: Jamiyat, davlat, fuqarolik jamiyati, sivilizatsiya, madaniyat, qadriyat, moddiy va ma'naviy qadriyatlar, ehtiyojlar, qadrilik, tabiat.

KIRISH.

Ma'lumki, jamiyat - tabiatning bir qismi, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan juda ko'plab munosabatlar yig'indisi, degan turlicha ta'riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Har bir yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keladi.

Inson borliq sifatida tabiat bilan uzviy bog'liq. Chunki inson kosmosning (koinotning) faol qismi sifatida u bilan bog'liq holda yashaydi, mavjud bo'ladi. Inson tabiat evolyusiyasining ajralmas qismi sifatida o'ziga xos ijtimoiy evolyusiyani tashkil etadi. Insonlar esa o'zaro birlikda jamiyatni tashkil etadi.

Jamiyat moddiy va ma'naviy omillar birligidan iborat. Hozirga qadar adabiyotlarda moddiy va ma'naviy hayot bir-biridan keskin farqlanar, moddiy hayotni tadqiq etishga ko'proq e'tibor berilardi. Holbuki, jamiyat mohiyati uni tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog'liq. Xuddi inson tanasini uning ruhidan ajratib bo'limgani singari, jamiyatning moddiy va ma'naviy jihatlarini ham bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo'yish mantiqqa ziddir.

Sotsial falsafa jamiyatning mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. Biz falsafa tarixiga nazar solsak jamiyat sirlarini ochish uchun harakat qilmagan falsafiy yo'naliishi ko'rmaymiz. Platon o'zining «Davlat» nomli asarida jamiyat to'g'risidagi ta'limotni g'oyalar dunyosining sir-asrori bilan bog'liq holda o'rgandgan. Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shaxri» asarida insonlar o'rtasidagi munosabat, bиргаликда yashash,

tinch-totuv bo‘lish to‘g‘risida «hamkorlik, moddiy va ma’naviy totuvlik jamiyatning asosini tashkil etadi», - deb ta’kidlaydi.

O‘rta asr g‘arb falsafasida jamiyat to‘g‘risidagi qarashlarda teotsentrik nazariya ustuvor bo‘lgan. Yangi zamon falsafaning vakillari, Gobbs va Lokklar davlatning shartnoma konsepsiyasini va shu asosda ijtimoiy shartnoma konsepsiyasini ishlab chiqdilar. Falsafa kursida ijtimoiy shartnoma bo‘lishi va uning huquqiy, dunyoqarash ahamiyati bayon etila bordi. Gegel jamiyat, madaniyat sohalarning ilmiy-falsafiy asoslarini maydonga tashladi. Ijtimoiy hayot ham tabiat singari ob‘ektiv qonunlarga ega. Bu qonunlar inson irodasiga, xohishiga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud deb ko‘rsatdi.

Marks jamiyatni ijtimoiy munosabatlar yig‘indisidan iborat deb aytdi. Biroq Gegel ham, Marks ham jamiyatdagi qonunlarni mavhum, konkret shaxs faoliyatidan ajralgan holda o‘rgandi. Pozitivizm (Kont, Spenser) tabiat fanlaridan maxsus ijtimoiy fanlarni ajratdi va jamiyat uning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganuvchi – sotsiologiyaga asos soldi. Hayot falsafasi va fenomologiya (Gusserl, Shyus) kundalik hayot sotsialogiyasini o‘rgandi.

Hozirgi zamon sotsial falsafasining o‘ziga xos tomoni nimada? Bunda gap sotsial jarayonlarga falsafiy yondoshish xaqida ketadi.

Afsuski, uzoq vaqt davomida-sho‘rolar hukmron bo‘lgan davrda jamiyat to‘g‘risidagi ta’limotda markscha – lenincha qarashlar hukmron edi. Bugungi kunda ham bu qarash ijtimoiy hayotni yangicha tahlil qilishga halaqit bermoqda. Zamonaviy sotsial falsafada jamiyat ma’naviy birlik, inson faoliyati, inson mahsulorligi hamda mantiqiylik nuqtai nazarda tahlil qilinmoqda.

Insonning «Tabiatdan jamiyatga» konsepsiysi falsafada jamiyatni naturalistik tushunish deb ataladi. Bu konsepsiada jamiyatning rivojlanishida geografik va demografik omillarning o‘rni qaraladi asosiy deb. Odamning paydo bo‘lishi Darwin ta’limoti asosida tushuntiriladi. Sotsial borliqqa biolog – tabiatshunos ko‘zi bilan qaraladi.

Psixologizm konsepsiysi. Bunda sotsial hodisani insonning murakkab ruhiyati bilan bog‘laydilar. Ularning fikricha, ijtimoiy hayot ruhiy – fiziologik holat bilan belgilanadi. Biroq madaniyat, inson amaliy faoliyatini ruhiy – fiziologik nuqtai nazardan to‘la – butkul izohlab bo‘lmaydi.

Hozirgi kunda sotsial hayotni tekshirishda ruhiy tahlil nazariyasi o‘stivorlik qilmoqda. Ruhiy tahlil asoschisi Freyd jamiyatni inson ruhiy dunyosidagi instinkt bilan izohlaydi. Uning fikricha, ikki instinkt inson hayotida eng muhim ahamiyatga ega. Gap hayot instinkti eros va o‘lish instinkti tanatos haqida boradi.

XX asr falsafasidagi sotsial psixologik oqim o‘z qarashlarini sotsial amaliy ta’sir konsepsiyasida (M. Veber, G. Parsons) davom ettirdi. Ular harakatdagi shaxsning boshqa odamlarga, boshqa ob‘ektga ta’siri haqida fikr yuritadilar. Har bir individ (yakka shaxs) sotsial normalarni o‘zicha «dasturlantiradi» va sotsial hayotni o‘zining ana shu mustaqil nuqtai nazaridan baholaydi, masalalarni hal qilish bo‘yicha qaror qabul qiladi va shu asosda faoliyatda bo‘lib, u yoki bu vazifalarni bajaradi. Butun jamiyat sotsial amaliy ta’sir tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu konsepsiya ko‘pincha sotsial aloqa tizimida shaxsni mutlaqlashtirishni qoralaydi. Bunga javoban simvolik interaksionizm o‘zaro talab javobini beradi (J. Mid).

Midning fikricha, o‘zaro ta’sir (interaksiya) simvolik ta’sir bo‘lishi mumkin. Ta’sir etuvchi shaxs, albatta, boshqa odam ta’siriga javob beradi. Faoliyatda bo‘lgan har bir ob’ekt o‘zi bajarayotgan jarayon uchun simvolik bo‘lib xizmat qiladi. Har bir odam o‘z rolini o‘ynaydi; shifokor, olim, talaba va hokazo kim bo‘lmasin, baribir hammalarining o‘z roli bor.

... dunyo – teatr, Bunda ayollar, erkaklarning har biri artistdir, Ularning sahnaga chiqishi, ketishi bor, Har biri o‘z rolini boshqacha o‘ynaydi.

U.Shekspir

«Men» – sotsial tajriba belgilagan rolni o‘ynayman. Individ sotsial munosabatlar asosida shakllanib boradi. Uning sotsiallashishi ana shu tarzda namoyon bo‘ladi.

Inson predmet ta’sirida emas, balki sotsial omillar ta’sir shakllanib boradi, deb ta’kidlaydi Marks. XX asrdagi sotsial konsepsiyalardan biri «Lingvistik tub o‘zgarish» deb ataladi. Ularning fikricha, til insonning eng muhim belgisi, shu bois u jamiyatning qiyofasini belgilaydi. Yu. Xabermas odamlar orasidagi munozara ma’lum qoidalarga asoslanadiki, shu asosda munosabatlar shakllanadi, birgalikda faoliyatda bo‘lish tamoyillari ishlab chiqiladi, deb yozadi. Jamiyat kommunikativ – diskurtiv (birgalikda dunyoni tushunish) bir butunlik asosida tashkil topadi. Bunda oshkorlik, demoqratiya, tanqidiylik hukmron bo‘ladi.

Biz yuqorida ijtimoiy falsafaning turli konsepsiyalarini ko‘rib chiqdik.

Ayrim shaxs faoliyati asosida butun bir xalq, millat haqida hulosa chiqarish mumkinmi?

Bu savolga sotsial falsafa hozircha «yo‘q» deb javob bermoqda. Jamiyat shunday tashkil qilingan tizimki, unda alohida shaxsdan tashqari ma’naviy hayot, inson simvolik (ramziy) dunyosi va shu faoliyatning natijasi ham mavjuddir.

Demak, jamiyat insonlarning tizimli tashkil qilingan birgalikdagi hayotiy faoliyatidan iborat. Sotsiallik – jamiyatga tizimli tavsif berish demakdir.

Sotsiallik (ijtimoiylik) deganda insonlarning birgalikda mavjud bo‘lishini xarakterlaydigan hamma hodisalar tushuniladi, bu tabiiy – fiziologik – biologik jihatdan farq qiladigan tomonidir. Sotsial yoki ijtimoiylik odamlar o‘rtasidagi bevosita yoki bilvosita munosabatlarning o‘zaro ta’siri natijasida jamiyatning turli qatlamlarga bo‘linishidir. Insonlar munosabatisiz sotsiallik mavjud bo‘lmaydi. Uning tashuvchisi inson va mahsulotlar yaratishdagi insonning faoliyatidir.

Ijtimoiylik (sotsiallik) har qanday shaxsga xos xususiyat. Insonning ijtimoiylashuv jarayonini o‘rganish alohida shaxs ongingin sotsial tomonini o‘rganishdan boshlanadi. Alovida odam ijtimoiylikdan tashqarida qaraladigan bo‘lsa, faqat uning ongi ruhiy, neyrofiziologik jihatdan qatnashganligi o‘rganiladi, xolos.

Ijtimoiylik boshqa odamning ta’siri, unga bo‘lgan munosabatda paydo bo‘ladi. Natijada insonning ruhiy dunyosi yangi sotsial darajaga ko‘tariladi. Jamiyat o‘ziga xos eng ko‘zga ko‘rinmas munosabatlar asosida yakka shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, ular o‘rtasida ma’lum aloqalar mavjud bo‘ladi.

Jamiyat makrostrukturasi jihatdan odamlar, mutaxassislik, demografik, iqtisodiy - siyosiy dunyoqarash mazmuniga ko‘ra, o‘zaro turli xil aloqada bo‘ladilar. Bu aloqalar kichik guruhlardan tortib xalq, millatqacha bo‘lgan munosabatlarni o‘z ichiga oladi.

Sotsial tuzilishni o'rganganda jamiyatning makrostrukturasini aniqlash juda murakkab masala. Ularda umumiy o'zak, umumiy jismoniy birlik yo'q. Lekin ma'naviy birlik, fikrlash birligi, umumiy ong – ijtimoiy ong mavjud.

Jamiyatning makrotuzilishi tizimli (sistemali) xarakterga ega. Uning sistemaliligi bir butun jamiyatni tashkil etadi. Jamiyatning bir butun tizimliligi bir makonda bo'laklarning birgalikda faoliyatda bo'lishini, jamiyatning birgalikda ishlashini ta'minlaydi.

Alovida shaxslar ruhiyati – ongi asosida ijtimoiy ong vujudga keladi. Jamiyatning makrotuzilishga ega bo'lgan ijtimoiy hayoti bir butun ong va ruhiyatni tashkil qilishining sababi uning bir butun tizimli tuzilishga ega bo'lishidadir.

Til, madaniyat, amaliyat, san'at, fan, axloqlarning ma'lum tizimga tushganligini hamma biladi. Biz tizim nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, shaxsning ichki o'zgarish jarayonining ham bir butun sistemadan iborat ekaniligini ko'ramiz. Uning ongi, hissiyoti, tili va madaniyati, dunyoqarashi kabilar bir butun tizimga ega ekaniligini ko'rsatadi.

Tizim oz sonli odamlardan, millat va xalqlardan ularning his tuyg'ulari, fikrlari, dunyoqarashining o'zaro birligi asosida tashkil topishi mumkin. Tizimda tartibsizlik (xaos) tartibga aylanib boradi. Ana shu tartib asosida madaniyat, san'at, axloq, til normalari vujudga keladi. Xalq, millatning ko'pchiligi unga amal qiladi.

Ma'lum tizimdagi odamlarning juda ko'p umumiy tomonlari bor (urf – odat, an'ana, fikrlash stili va boshqalar). Biroq ularning o'ziga xos tomoni ham bor.

Demak, ijtimoiylik tizimlilik ta'siri asosida umumiylig va o'ziga xoslikni o'z ichiga oladi.

Ratsionallik insonning ongli, maqsadga qaratilgan faoliyati sifatida qaraladi.

Veber insonnda to'rtta sotsial ta'sir mavjudligini aytadi ko'rsatadi. Ular qattiq hayajon, an'anaviylik, ratsional qadriyatlar uva ratsionallikdir. *Uning fikricha, eng asosiysi qattiq hayajondir.* Bunda inson o'z xohishini qondirishga intiladi. Individ ana shu ustunlik asosida ish tutadi. +attiq hayajon hamma vaqt ham natija beravermaydi. Chunki u hamma vaqt ham o'yangan, atroflicha fikrlangan bo'lmaydi. Bunda *an'anaviy ta'sir*, qoida va qonunlar ish beradi. O'tmishga tahlid qilish *an'ana va odatlarga asoslangan* bo'ladi. Bular qat'iy xulosalar bo'lib, odatda tanqid qilinmaydi. *Ratsional qadriyatlar* ma'lum mustaqil harakatga ma'lum dastur asosida faoliyatda bo'ladi.

Nihoyat maqsadli-ratsional faoliyat. Bunda sub'ekt aniq dastur asosida maqsadga qaratilgan bo'ladi. Bu ijtimoiy hayotni o'rganishdagi ratsional (aqliy) momentning o'sib borishidir. Faoliyatni o'rganishning ratsional modeli maqsadli aqllilikni tashkil etadi.

Jamiyat haqidagi fan avvalo maqsadli ratsional-aqliy faoliyat bo'lib, bunda pragmatik metod ustun turadi. Tabiat fanlari esa pragmatik metodga emas, balki gipotetik-deduktiv metodga asoslanadi.

Tarixning mohiyati. Tarix mohiyatini tushunish dunyoqarash ahamiyatiga ega. Bu, o'z navbatida, *inson faoliyati qachon va qanday sharoitlarda buzish, yo'q qilish va o'ldirishga qaratilgan bo'ladi; qaysi vaziyatda o'z-o'zini rivojlantiruvchi, yaratuvchanlik va bunyodkorlik faoliyatida bo'ladi; tarixning sog'lom rivojlanishiga kafolat berad*, kabi masalalarni oydinlashtirishni taqozo etadi.

Bu falsafa tilida tarixning mohiyati deb ataladi.

Biz tarix mohiyatini aniqlash bilan tarixning mavjud bo‘lishi chegarasini aniqlaymiz. Tarix mavzusida bo‘lishi uchun o‘zining yo‘qotgan qadriyatlarini tiklashi, buzmasdan, to‘siq bo‘lmasdan harakat qilishi, rivojlanishi kerak.

Zamonaviy mutaffakkirlar ta’limotiga ko‘ra tarixning olg‘a ketishi progressga kafolat bermasa-da, uning mavjud bo‘lishiga, abadiyligiga kafolat beradi.

XX asr falsafasi XIX asr falsafasidan farqli o‘laroq o‘tmishning bugun va kelajak bilan aloqasi asosida kafolatli taraqqiyotni ko‘rsatib berdi. Buning eng asosiyлari quyidagicha:

Birinchidan, hozirgi zamon tarix falsafasi sotsial amneziya (xotiraning yo‘qolishi) ga alohida e’tibor bermoqda. XIX asr falsafasi shu narsani aniqladiki, xalq, millat o‘z tarixini esdan chiqarishi hollari yuz berishi mumkin ekan. Bunday jarayon alohida shaxslarda ham uchrashi mumkin. Bunda *shaxs o‘z o‘tmishin esdan chiqarsa, amneziya kasalligi deb ataladi*. Sotsial bu ma’noda u yoki bu xalqning tarixini butunlay yoki uning bir qismini unutishini anglatadi. Bunda xalqning o‘tmishi bilan bugungi kun o‘rtasida izchil aloqa yo‘qoladi yoki kamayadi. Bu nafaqat tarixiy jarayonlarda, balki biror bir davrning tarixiy shaxslari bilan ham yuz beradi. Masalan, sho‘rolar davrida o‘zbek xalqning bir qator ziyoli farzandlari «xalq dushmanlari» timg‘asi ostida qatag‘on qilindilar... Bu ularning halqimiz xotirasidan o‘chirilishlariga, keyingi avlodda ular tug‘risida yomon taassurot qilishiga olib keldi.

Ikkinchidan, tarixni buzishga, yo‘q qilishga qaratilgan kuchlar haqida gapirar ekanmiz, XX asrda bo‘lgan ikkita jahon urushlarini tilga olishga to‘g‘ri keladi. Bu urushlar shunday oqibatlarga olib keldiki, sivilizatsiyani vayron qilib, uni halokat yoqasiga keltirib qo‘ydi qoldi.

Ilgarigi zamonlarda harbiy to‘qnashishlar jahonshumul ahamiyatga ega emas edi. Gegelning «urushlar tarixiy jarayonlarni o‘zgartishi mumkin emas», degan fikri hozirgi sharoitda to‘g‘ri kelmay qoldi. Shu ma’noda shaxsning tarix oldida o‘ta mas’uliyati tarixning kafolatli davom etishida asosiy kuchga aylanib qoldi.

Uchinchidan, insonlar faoliyatida yuz berayotgan g‘ayri insoniy xatti-harakatlar jamiyatning o‘zini o‘zi yo‘q qilishiga olib keldi. Jahonda yadro, ekologik, demografik fojialar va shu kabi global muammolar paydo bo‘ldi. Olimlar, faylasuflar, tarixchilar jamiyatning kafolatli taraqqiyoti bo‘yicha inson faoliyatining dasturini ishlab chiqdilar. Dasturda tarixiy vorislikni ishga tushirish, insoniyat tarixini saqlab qolish mumkin deb ko‘rsatildi. Buning uchun odamlar real hayotni to‘g‘ri tushunishlari, tarixni saqlab qolish va kafolatli taraqqiyot mohiyatini chuqr anglashi kerak. Har bir shaxs o‘zining qobiliyati va iste’dodini reallashtirib, namoyon qilib, ishonch, e’tiqod, sevish bilan odamgarchilikni birinchi o‘ringa qo‘yib yashashi kerak. Bugungi kunda har bir shaxs, millat, xalq butun tarixiy jarayonlarni o‘zida namoyon qilib, o‘ziga xos, o‘ziga mos yo‘lni topib yashashni ta’milamasa, dunyo tarixi quruq bir sxemaga aylanib qoladi. Har bir shaxs, millat, xalq hayot betakror ekanligi hisobga olinishi zarur, aks holda tarix oddiy andozadan iborat bo‘lib qoladi. **Tarixning mazmuni ana shular bilan to‘ldiriladi**

XX asr falsafasi «*o‘tmish bilan bugungi kun va kelajak bir butun jarayonni tashkil etar ekan, bu jarayon alohida shaxsda qanday yuz beradi?*» degan savolga javob beradi. **Demak, tarixiylik shaxs va har bir avlod taqdirini tarix taqdiri bilan uzviy bog‘liqlikda olib qaraydi.** Bular avlodlar bilan jonli munosabat, ularning o‘zaro

bog'liqligi, ma'naviy muloqotda bo'lishi tarixning kafolatli abadiy yashashini ta'minlaydi. Bu dunyodagi barcha odamlarning bir-birlari bilan o'zaro hamkorlikda bo'lishi, o'zaro bir-birini tushunishi, o'zaro ishonch asosida boradi. **+aerda shaxs taqdiri har bir avlod taqdiri bilan bog'liq holda o'zaro munosabatda bo'lqa, o'sha yerda tarixning taraqqiyot kafolati ta'minlanadi.** Tarixning mohiyati har bir insonning tarix jarayonlari bilan turlicha munosabatda bo'lishi orqali belgilanadi.

XX asr falsafasida tarixning mohiyati har bir shaxs uchun tarixiy davrning uch o'lchovi bilan belgilanadigan tushunchalar orqali ochib beriladi. Bu uch o'lchov shaxsning o'tmish, bugungi kun va kelajakka bo'lgan munosabatini ta'minlaydi. Mana shu o'tmish, bugungi kun va kelajak tarix jarayonida shaxsning vaqtga bo'lgan munosabatini ifoda etadi. **Bu o'lchov ma'lum tarixiy davrda avlodlarning o'zaro ma'naviy munosabatini ta'minlaydi.**

Birinchidan, *tarixda ma'naviy farzandlik tushunchasi* amal qiladi. Inson dunyoda yashar ekan, o'tmish avlodning farzandi sifatida yuzaga keladi, yashaydi. Biroq u butun yumushni boshidan boshlamaydi, ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy madaniyatning davomchisi, o'zi yashayotgan jamiyat, vaqt nuqtai nazaridan baholovchi, bajaruvchi sifatida mavjud bo'ladi. Chunki ota-onadan qolgan moddiy va ma'naviy boylikning egasidek, shu jarayonni davom ettiruvchi farzand sifatida yashaydi. Ma'naviy farzandlik shaxsning ma'naviy dunyosining tarkibiy qismidir. Ayni bir vaqtida u tarixning vorisi sifatida namoyon bo'ladi. **Tarix, bu jihatiga ko'ra, avlodlarning almashuv jarayonidagi munosabatni anglab yetishdir.**

Ma'naviy farzandlik ma'nosini tushunmaslik avlodlar qadriga yetmaslikdir. Bunda shaxs ajdodlarini tanimaydigan mavjudotga aylanib qoladi.

Tarixni bilmaslik o'z ajdodini bilmaslikdir, demak, ma'naviy farzandlikdan mahrum bo'lish demakdir. Bundan shunday hulosa kelib chiqadiki, har bir inson o'tmish ota-babolari yaratgan bilimlardan, madaniyat va qadriyatlardan foydalanar ekan, u o'z davrining farzandi sifatida yashaydi.

Inson o'z davrininggina emas, o'z tarixi, o'z avlodining farzandidir. Bizdagi g'urur, iftixon, insoniylik o'tmish avloddan meros bo'lib qolgan.

Ikkinchidan, bugungi kun tarix falsafasi ma'naviy birodarlik tushunchasini maydonga tashladi. Biz shunday tarixiy davrda yashamoqdamizki, har bir shaxsning dunyo oldidagi mas'ulligini anglab yetishi masalasi asosiy o'ringa chiqib qoldi. Dunyodagi ziddiyatlar, muammolarni hal qilish uchun odamlar bir – birlari bilan do'st – birodar bo'lib yashashi eng muhim masalaga aylanib qoldi. Dunyodagi urushlar, o'ldirishlar odamlar o'rtasidagi dushmanlik tuyg'usi asosida paydo bo'ladi. Insonlarning bir-biri bilan do'st bo'lishini ta'minlash insoniy xislatlarni namoyon qilish demakdir.

Shu vaqtgacha bu tushunchaga unchalik etibor berilmagan edi. Do'stlik, birodarlik juda deganda yaxshilik deb qaralgan edi. Endilikda real hayot, bir sayyorada, bir yer sharida yashaydigan odamlarning hamkorligi muqaddas qat'iy qoidalarga aylanishini taqozo qilmoqda. Chunki sayyoramiz, ayrimlar o'ylagandek, juda mustahkam emas ekan. Mana shu umumiyyatni avaylab saqlab qolish uchun faqat hamkorlikda yashash kerak. Yadro fojalarini, ekologik buhronlarni birodarlik bilangina hal qilish mumkin.

Barcha insonlar, sotsial ahvoli, boy – kambag‘alligidan qat’iy nazar Yerda hayotni saqlab qolishga, butun insoniyat taqdiriga mas’ul ekan, bиргаликда hamkor bo‘lib yashashning hayot tarziga aylanib borishidan – bu davra bugungi kun talabidir. Ma’naviy birodarlik ziddiyatli masalalarni tinch va osoyishta hal qilishni ko‘zda tutadi. Inson o‘zligini, o‘z qadr - qimmatini anglab yetishi va shu qadr - qimmatni ruyobga chiqarishga o‘ta ma’sul ekanligini his qilishi o‘ta dolzarb masalaga aylandi.

O‘zbekiston XXI asrga qadam qo‘yar ekan, tinchlik, birodarlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikni, barqarorlikni ta’minalash g‘oyasi bilan jahon hamjamiyatiga kirib bormoqda. ***Bu g‘oya tarixiy taraqqiyotning mohiyatini belgilaydi.*** Chunki odamlar o‘rtasidagi urushlar, bir- biriga tajovuz qilish, insonga qarshi g‘ayriinsoniy faoliyatda bo‘lish g‘oyasi XX asrda qolib ketgani yaxshi. XX1 asr insoniylik asri bo‘lishi, insonlar o‘z hayotlari ro‘yobga chiqarishlari uchun to‘liq imkoniyat yaratilishi kerak. Jamiyatimizdagi tinchlik, osoyishtalik, birodarlik, o‘zaro hamkorlikning samarasi ham shunda. Yurtboshimiz bu tamoyil nafaqat alohida olingan millat va, xalqning, balki dunyo xalqlarining ma’naviy birodarlik tamoyiligiga aylanishi kerakligini nazarda tutadi. ***Bizning jamiyatimiz boshqa xalqlar, mamlakatlar bilan birodarlik murosa qilish konsepsiysi asosida ish ko‘radi.***

Tarixga har bir shaxs o‘z fikri, e’tiqodi, dunyoqarashi bilan mustaqil munosabatda bo‘ladi. Bu esa shaxsnинг umumiy tarixiy jarayonlarda ishtiroki mazmunini tashkil etadi. Shundan ko‘rinadiki, umumiy jarayonlar sifatida tarix shaxsning qadr-qimmatining o‘ziga xosligini namoyon qilish asosida boradi.

Bugungi dunyoda haxsning qadr-qimmatini namoyon qilishiga to‘sinqinlik qiluvchi omillar juda ko‘p. Boylik orqasidan quvish, amalga intilish, shon-shuhratga berilish, nopolklik va boshqalar qadr-qimmatni oshirish emas, aksincha, shaxsning o‘zi o‘zini pastga urishi ekanligini hamma vaqt ham payqamaydilar. «Oddiy» odamga e’tibor bermaslik, «yuqoriga» qarab «pastni» ko‘ra bilmaslik shaxsning qadr-qimmatini pastga uradi. Hozirgi zamon gumanizmi har bir shaxsning qadr-qimmatini oshirishga, uning borlig‘ini, yashashini qolishi, tarixiy jarayonda faol ishtirokini ta’minalashga qaratilgan.

Milliy ma’naviyatimiz, milliy g‘oyamiz ana shularni ifoda etadi. O‘zbekiston Konstitutsiyasi xalqaro huquq normalariga amal qilgan holda inson erkinligi va huquqlariga kafolat beradi. Xalqimizning bugungi kunda millatga, jamiyatga, o‘z-o‘ziga, boshqa xalqlar qadriyatlariga bo‘lgan munosabati tarixga bo‘lgan munosabat mezonini bilan o‘lchanadi.

Adabiyotlar:

1. Oblomurodov N.H. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. T.: Iqtisod-moliya. 2022.
2. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi. Darslik. - T.: Iqtisod-moliya. 2016.
3. Rajabov Y. O‘zbekiston tarixi (1917-1993-yillarda) – T.: O‘qituvchi, 2007. 232 bet.

INTERFAOL METODLAR ORQALI GEOGRAFIYANI O'QITISHNI TASHKIL ETISH

Yuldasheva Soxiba Ibroximjonovna

*Andijon davlat universiteti akademik liseyi, geografiya fani o'qituvchisi
(Andijon viloyati, Andijon shahri)*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14750233>

Annotation: in this article, information on the organization of the teaching of geography through interactive methods will find its confirmation.

Keywords: geography teaching methodology, river, lake, reservoir, swamp, economic geographical concepts, various forms of training.

Аннотация: В данной статье находит свое подтверждение информация об организации обучения географии интерактивными методами.

Ключевые слова: методика преподавания географии, река, озеро, водохранилище, водно-болотное угодье, экономико-географические понятия, различные формы обучения.

Annotatsiya: Ushbu maqolada interfaol metodlar orqali geografiyani o'qitishni tashkil etish borasida ma'lumotlar o'z tasdiqini topadi.

Kalit so'zlar: Geografiya o'qitish metodikasi, daryo, ko'l, suv ombori, botqoqlik, iqtisodiy geografik tushunchalar, o'qitishning turli shakllari.

KIRISH.

Geografiyani o'qitish jarayoni deganda, o'quvchilarning muayyan o'quv materialini o'zlashtirish, bilish usullarini egallashga qaratilgan o'quv-bilish faoliyati va o'qituvchining mazkur jarayonni tashkil etish va boshqarishga asoslangan pedagogik faoliyati orqali o'zaro hamkorlikda o'quv maqsadlariga erishiladigan jarayon tushuniladi.

O'qitish jarayoni tashkil etiladigan va boshqariladigan jarayon bo'lib, u birqancha shakllarda tashkil etiladi.

Didaktika va geografiya o'qitish metodikasiga oid manbalarda o'qitish jarayoni va uning shakllariga turlicha ta'rif berilgan. Jumladan, didakt olim Yu.K. Babanskiy fikricha, o'qitishni tashkil etish shakllari ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan individual yoki yalpi o'qitishning nisbati, o'quv-bilish faoliyatining faollik darajasi, hamkorlikda tashkil etilgan o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati va o'qituvchining rahbarlik roli, pedagogik faoliyatining me'yorini belgilaydi.

P.Yesipov tomonidan chop etilgan "Osnovi didaktiki" kitobida o'quv ishlarini tashkil etish shakllari o'quvchilarning bilish faoliyati turlarining ketma-ketligi, o'qituvchining mazkur faoliyatni boshqarish usullari, mashg'ulotlarning mazmuni, tarkibi va vaqtini belgilaydi deb uqtirilgan.

N.M. Verzilin, V.M. Korsunskaya ta'rifi bo'yicha o'qitish jarayonini tashkil etish shakllari - o'qituvchi tomonidan tarbiyalovchi ta'lim jarayonida foydalaniladigan turli

sharoit (geografiya o'quv xonasi, ekskursiya, tirik tabiat burchagi, tabiat)da o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish tushuniladi.

O'quvchilar tomonidan geografiya o'quv fani dasturlari va DTS bilan me'yorlangan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, ularni tarbiyalash va rivojlantirish jarayoni o'qitishning turli shakllaridan foydalanishni taqoza etadi.

Geografiya o'qitish metodikasida o'qitish jarayonini tashkil etishning turli shakllari belgilangan. Ularga dastur talablarini amalga oshiradigan o'qitishning asosiy shakli bo'lган dars, unga bog'liq holda ekskursiyalar, geografiya maydonchasidagi ishlari, uy ishlari, darsdan tashqari ishlari va ixtiyoriy ravishda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar kiradi.

Mazkur o'qitish shakllari birgalikda geografiya o'qitish shakllari tizimini tashkil etadi.

O'qitishning asosiy shakli bo'lган - dars, ularni bog'lovchi vazifasini bajaradi va o'qitishda yetakchi o'rinni egallaydi.

Dars, ekskursiyalar, geografiya maydonchasidagi ishlari, uy ishlari, darsdan tashqari ishlari va sinfdan tashqari mashg'ulotlar birgalikda geografiyani o'qitishdan ko'zda tutilgan umumiy o'quv maqsadlariga erishishni ta'minlaydi, o'quvchilar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish, olingen natijalarini tahlil qilishga xizmat qiladi.

O'qitishni tashkil etish tizimining tarkibiy qismlari bo'lган dars, ekskursiya, geografiya maydonchasidagi ishlari, uy ishlari, darsdan tashqari ishlari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarning har biri geografik ta'lim oldiga qo'yilgan umumiy maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan alohida o'z ulushi mavjud. Mazkur ulushni xususiy maqsadlar ham deyish mumkin.

O'qitish jarayonini tashkil etishning turli shakllarida ta'lim mazmuni, maqsadi, vazifasiga bog'liq holda muayyan metod va vositalardan foydalaniladi.

SHu sababli, o'qituvchi tomonidan o'qitish shakllarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni ta'lim mazmuni, mazkur shakllarning maqsadi, vazifasi, ta'lim- tarbiya jarayonida tutgan o'rni, ularning xususiy maqsadlariga mosligi e'tiborga olinishi lozim.

Masalan, o'rganiladigan mavzu meteorologik asboblar yoki laboratoriya jihozlari bilan bog'liq, shuningdek, tabiiy geografik jarayonlar, nazariya, g'oya, tushunchalar, qonunlar, masala yechish o'rganiladigan bo'lsa, unda albatta o'qitishning asosiy shakli bo'lган darsni tanlash zarur.

Agar ta'lim mazmuni turli relyef shakllarini, daryo va uning qismlari o'rganishni talab etsa, bu holda ekskursiya tashkil etilishi, yoki videofilbmlar namoyish qilish maqsadga muvofiq.

Geografiyani o'qitishda bilimlarni amalda qo'llash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu quyidagi yo'naliishlarda bo'lishi mumkin:

1. Amaliy topshiriqlarni, masalan, yer osti suvlaringin harakatini, chiqurligini aniqlash, daryoning suv sarfi, o'rtacha chuqurligini aniqlash va boshqalar.

2. Geografik bilimlarni tabiat xodisalari va voqealarini tushuntirishda (yil fasllarining almashinishi yoki siyosiy xaritalarni o'zgarishi) ishlatish mumkin.

3. Bilimlarni qo'llash avval o'zlashtirgan bilimlarni va yangi bilimlarni egallash jarayonida ham ishlatish mumkin. Iqtisodiy geografik tushunchalarni shakllantirish ham

o'ziga xos bo'lib, odatda u uchta bo'g'indan iborat bo'ladi.

- a) Kirish. O'quvchilar bu bo'g'inda dastlab mamlakat yoki hududning boshqa mamlakatlar va hududlar o'rtasida tutgan o'rni, maydoni va aholisi, tabiiy boyliklari, mehnat resurslari bilan ta'minlanish, xalq xo'jaligidagi ixtisoslik tarmoqlarining tutgan o'rniga oid ma'lumorlar bilan tanishadilar.
- b) Mamlakat yoki hududning iqtisodiy geografik ta'rifiga ega bo'lgan xususiyatlari bilan tanishadilar. Shu bo'g'inda to'liq tushunchaga ega bo'ladilar.
- c) Mamlakat yoki iqtisodiy rayonni boshqa iqtisodiy rayon va mamlakatlarga qiyoslash orqali tushunchani amalda qo'llashga erishadi. Har bir bo'g'in har xil ishslashni talab qiladi.

Amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodikasi

Geografik ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodikasi bilim egallash, ko'nikma va malakan shakllanishi bilab chambarchas bog'liq. O'quv ishlari metodikasini bilish ko'nikmalarni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ilg'ir geografiya fani o'qituvchilari va metodistlar o'quvchilar amaliy tayyorgarligiga katta e'tibor beradilar. Maktab geografiyasida shakllantiriladigan ko'nikmalar mazmun jihardan emas, bajarish murakkabligi bo'yicha ham farq qiladi. Masalan, Ufq tomonlarini aniqlash oddiy ko'nikma bo'lsa, topografik planni o'qish va uni tuzish esa murakkab ko'nikma hisoblanadi. Geografiya o'qitish metodikasi shakllantiriladigan ko'nikma va malakalarning ta'limtarbiyaviy ahamiyatini to'laligicha ochib bergen va o'quvchilarga yetkazish metodlarini ham ishlab chiqqan. Faqat geografiya ta'limiga xos bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalarga quyidagilar kiradi: joyda mo'ljal ola bilish, joy planini tuzish, topografik plan va turli mazmundagi geografik kartalarni o'qish, tabiatda va ishlab chiqarishda kuzatish natijalarini yozib borish va qayta ishslash, statistik iqtisodiy materiallar bilan ishslash va h.k.

Har bir geografik ko'nikmani shakllantirish murakkab harakat tizimlarini talab qiladi. Odatda ko'nikma va malakalar bir vaqtning o'zida shakllatnirladi. Chunki amaliy topshiriqlarni bajarishda ularning ayrimlari ongli ravishda, ba'zilari bevosa, ammo ong nazorati ostida bajariladi. Masalan, topografik planni o'qish ko'nikmasi o'z ichiga yo'naliishlarni aniqlash, masshtab yordamida plandagi masofalarni o'lchash, topografik belgilarni o'qish, joyda obyektlar o'rtasidagi aloqadorlikni o'rnatish kabilarni o'z ichiga oladi. Yuqoridaqilardan topografik belgilarni ishlatishni bilishgina malaka darajasini ko'rsatadi.

Ob-havoni kuzatish ko'nikmasi deganda termometr, barometr, flyuger bilan ishslash, ko'z bilan bulutlar shakli va turlarini, ob-havoning boshqa alomatlarini aniqlash tushuniladi. Shular qatorida ob-havo haroratini aniqlash va barometr bilan ishslash malaka darajasigacha ko'tarilishi mumkin.

Geografik ko'nikma va malakalar ko'p xollarda bilim sifatini belgilaydi. Tajribalar shuni ko'rsatyaptiki, qayerda o'quvchilarda xarita bilan ishslash ko'nikmasi shakllantirilsa, ularning javoblari ham xarita bilan bog'langan bo'ladi. Xarita bilan ishslash ko'nikmasini egallay olmagan o'quvchilardagi quruq, o'qituvchi bayoni yoki kitobdan o'qiganlarni takroridan iborat bo'lib qoladi.

Geopgrafik xaritalarni o'qiy olishga o'rgatilgan o'quvchilardagi harakat yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Aksariyat o'quvchilar va talabalar javoblarini kuzatish geografiya

bo'yicha olimpiadalarda ishtirok qilgan o'quvchilarning bilimlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular xaritadan bilim manbain sifatida foydalanadilar, ularning bergen javoblari to'liq bo'lib, biror hududning tabiiy sharoiti va xo'jaligini xarita asosida tavsiflab bera oladilar. Boshqa o'quvchilarga bu hislatlar xos emas.

Ko'nikma va malakalar kelgusida o'quvchilarni amaliy hayotga tayyorlanishda turli xil ilmiy-ommabop adabiyotlardan, xaritalardan bilimlarni egallash muhim ahamiyatga ega. Ular o'quvchilar tomonidan mazkur ko'nikmalarning egallanishini yengillashtiradi, masalan, joyda ufq tomonlarini aniqlash ko'nikmasi xaritada mo'ljal olish ko'nikmasini egallahsga yordam beradi. O'quvchilarning ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi hamda ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirilishga ham ijobjiy ta'sir qiladi. O'quvchilar ko'nikma va malakarni amalda qo'llash orqali geografik qonuniyatlarning obyektivligiga ishonch hosil qiladilar.

Geografiya o'qitish metodikasida geografik ko'nikma va malakarlarni shakllantirish metodlari to'la ishlab chiqilmagan. Masalan, o'quvchilarning u yoki bu mavzudagi qaysi harakati ko'nikma darajasiga, qaysilarini malaka darajasiga ko'tarish mumkin? O'qituvchi o'quvchilarga qanday yakka tartibda yondashishi kerakligi masalalari geografiya ta'limida atroflicha o'r ganilgan. O'quvchilarda geografik ko'nikmalarni hosil qilish uchun o'qituvchi ko'nikma hosil qilishidagi harakat metodlarini ko'rsatibgina qolmasdan, balki, o'quvchilar uchun (ko'nikma egallashi uchun) zarur topshiriqlarni ishlab chiqishi kerak.

Mashqlar jarayonida oddiy ko'nikmalar sekin-asta malakaga aylanadi. Amaliy ko'nikma va malakarlarni shakllantirishning metodik shart-sharoitlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ba'zi ko'nikma va malakalar oz vaqt va ko'p kuch talab qilsa (gerbariylar yig'ish, komposdan, nivilerdan foydalanish va h.k.), ba'zilari juda ko'p murakkab harakat metodlarini va ko'p vaqt talab qiladi. Masalan, geografik xaritani o'qish ko'nikmasini hosil qilish quyidagi murakkab jarayonlarni talab qiladi: moljal olish, daraja va kilometr hisobida aniqlash, punktlar, hududlar o'rtasida fazoviy bog'liqlikni qiyoslash, geografik koordinatalarni aniqlash, xaritada ko'rsatilgan obyektlar va hodisalar o'rtasidagi sabab oqibatlar aloqadorligini o'rgatish, alohida obyektlar (daryo, ko'l, suv ombori, botqoqlik)ni ta'riflash, ko'rsatilgan hududni malakat, tuman, shaharning tabiiy geografik va iqtisodiy geografik tavsifini yozish va h.k.

Ko'nikma va malakalar shakllanishi ko'pgina sabablarga: o'quv jihozlari va vositalari, o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga ham bog'liq. Lekin, o'qituvchi asosiy saba hisoblanadi. O'qituvchi rahbarligining mazmuni ham shundan iboratki, ko'nikma egallah jarayonida u o'quvchilar harakatini tahlil qiladi. Ushbu ko'nikma va malakani egallah uchun qanday nazariy bilimlar zarurligini aniqlaydi. Ko'nikmani shakllantirishdagi muhim omillardan yana biri nazariy materialni amalda qo'llash vaqt va o'rni hisoblanadi. Masalan, mahalliy kanal, daryo rejimi (oqim tezligi, eni, chuqurligi)ni o'lhash. Ushbu amali ish O'zbekiston ichki suvlari mavzisini o'ganib bo'linganidan so'ng bajarish maqsadga muvofiq. Agar ushbu ish mavzu o'r ganilmasdan avval bajariladigan bo'lsa, o'quvchi uni mexanik tarzda o'zlashtirib, uning mohiyatiga tushunmasliklari mumkin. Demak, ko'nikmalarni shakllantirish bevosita mavzuni o'rganish jarayonida bo'lsa, uni sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Nazarov I.Q. Geografiya fanining asosiy muammolari. T.: Muharrir, 2013.
2. Vahobov H, Abdunazarov O', Zayniddinov A "Umumiy yer bilimi" Toshkent 2004 yil 256 bet.
3. Vahobov, Abdunazarov "Umumuiy yer bilimi" Toshkent 2005-yil.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TA’LIMGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHISH SAMARADORLIGI

Xusanova Naima Zokirjonovna

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

xusanovan513@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14750431>

Annotatsiya – Ushbu maqolada ta’limga kompetensiyaviy yondashish samaradorligi, usullari haqida ilmiy fikrlar yuritilgan. Boshlang‘ich talimda kompetensiyaviy o‘qitish usullari sanab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar – kompetetnsiya, lug‘at, nutq, manba, nutqiy kreativlik, leksikografiya, leksikologiya, nutq, imloviy savodxonlik, kontekst, atama, imloviy lug‘at, ibora.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sifati, jumladan, boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirish, malakali mutaxassislar bilan ta’minalash, o‘quv uslubiy ta’mintoni mustahkamlashga qaratilgan islohotlar natijasida boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitish, o‘qish savodxonligiga erishish, ta’lim mazmunini ilmiy tashkil etish va fanlarni o’zlashtirishda kompetensiyadan foydalanish ta’lim samarasini yuksaltirmoqda. Shu o‘rinda yurtboshimiznign quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinlidir: "Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlарimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlар. Mayli, yoshlар o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta’kidladi Prezidentimiz. Darhaqiqat, mamlakatimizda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar va islohotlar, tabiiyki, ta’limda kompetentli yondashuvni talab etmoqda. Shu o‘rinda kompetensiya tushunchasining mazmuniga to’xtalib o’tsak.

Kompetensiya (lotincha “competo” so‘zidan olingen bo‘lib, “erishaman, muvofiqman, mos kelaman” ma’nolarini beradi) — kishi egallagan muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar majmuasini anglatadi. Kompetensiya tushunchasi nisbatan yaqindan boshlab, 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlaridan keng qo‘llanila boshlandi.

Kompetensiya – ma’lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan mutaxassisning ta’limiy tayyorgarligiga qo‘yilgan talabdir. U davlat ixtiyorida bo‘lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo‘lib, u o‘quvchi (ishchi)ning muayyan sohada samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan ta’limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladi.

